

## **SOLIQQA OID QONUNCHILIK IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10156028>

**Usmonov Mansurbek Muhammadjonovich.**

*Xuquqni muhofaza qilish akademeyasi Prokurorlik faoliyati magistranti.*

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada soliqqa oid qonun ustidan prokuror nazorati va uning ahamiyati haqida so'z boradi.*

### **Kalit so'zlar**

*Demokratik, adolat, tashabbus, barqarorlik, ma'murchilik, Soliq kodeksi, fuqaro, mol-mulk.*

Bugungi kunda yurtimiz demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanib bormoqda. Aynan mana shu jarayon islohotlarimizning eng katta natijasi hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan g'oya va tashabbuslar asosida mamlakatimizda soliq sohasida ham mutlaqo yangi – adolatli, shaffof va izchil tizim yaratildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – soliqlar yukini kamaytirib, odamlar daromadini oshirish, pirovardida ishlab chiqarishni rivojlantirish va iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashdan iborat. Ushbu maqsadlarga izchil soliq ma'murchilagini joriy etish orqali erishilyapti.

2019 yilning 30 dekabr kuni yangi tahrirdagi Soliq kodeksi qabul qilinib, 120 dan ortiq yangi qoida amaliyatga kiritildi. Yangi Soliq kodeksining qabul qilinishi natijasida soliqlar soni 13 tadan 9 taga, mulk solig'i stavkasi 4 foizdan 1,5 foizga, qo'shilgan qiymat solig'i 20 foizdan 15 foizga tushirildi. Ish haqiga nisbatan soliq yuki qariyb 2 baravar kamaytirildi. Eng muhim, o'zgarishlarni har bir fuqaro, har bir tadbirdorlik subyekti his qilyapti. Chunki, yaqingacha tadbirdorlarga og'ir yuk bo'lib kelgan Pensiya, Maktab va Yo'l jamg'armalariga 3,2 foizli yig'imlar bekor qilindi. Ana shular hisobidan 7 mingga yaqin korxona har yili o'rtacha 6 trillion so'm miqdoridagi soliq to'lashdan ozod bo'ldi va shuncha mablag' o'zlarida qolyapti. Shuningdek, mol-mulk, daromad va ijtimoiy soliqlar stavkalari

2 barobar kamaytirildi. Buni aniq misollar orqali ifodalaydigan bo'lsak, transport sohasida soliq yuki – 3 baravar, oziq-ovqat sanoatida – 2 baravar, to'qimachilik va elektr texnikasi sanoatida esa, 20 foizgacha kamaydi.

Qolaversa, soliq yukining teng taqsimlanishi va pasayishi natijasida foyda solig'i to'lovchilari 15,2, suv solig'i to'lovchilari 36,5 va yer solig'i to'lovchilari 38 baravarga ko'paydi. Umumlashtiradigan bo'lsak, soliq majburiyatlarini o'z vaqtida ixtiyoriy bajarilish darajasi 80 foizdan 95 foizga ko'tarildi. Yig'ilayotgan soliq miqdori 2020 yilning oxirgi choragidan boshlab har oyda 10 trillion so'mdan oshmoqda. O'zbekiston soliq tizimida shu paytgacha bunday natija kuzatilmagan. Barcha tadbirkorlik subyektlarining ro'yxatga olish ma'lumotlari qayta ko'rib chiqilib, undagi xato va kamchiliklar bartaraf etilishi hamda boshqa vazirlik hamda idoralar ma'lumotlari bilan birxillashtirilishi ta'minlandi. 2022 yildan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i, aylanmadan olinadigan soliq, yer solig'i, mol-mulk solig'i va aksiz solig'ini davlat soliq qo'mitasida mavjud elektron ma'lumotlar asosida avtomat ravishda shakllantirish mexanizmi yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 20-moddasiga binoan, «vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolaming o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar va boshqa mansabdar shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi, shuningdek, ular tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlaming O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligi nazorat predmeti hisoblanadi». Qonunlar ijrosini tekshirish qonunlarning buzilayotganligi to'g'risidagi arizalar va boshqa ma'lumotlar asosida, shuningdek, qonuniylik prokuror tomonidan choralar ko'rinishini talab qiladigan holatda ekanligidan kelib chiqqan holda qonunda belgilangan tartibda o'tkaziladi. Davlatimizdagi qonuniylikni mustahkamlash, qonun buzilish hollarini aniqlash, ularni va vujudga kelishiga sabab bo'lgan shartsharoitlami bartaraf etish masalalari aynan shu yo'nalishda faoliyat ko'rsatayotgan prokuratura xodimlariga ko'p jihatdan bog'liq. Chunki qonun bilan zimmalariga yuklatilgan vazifalarni amalga oshira turib, aynan prokurorlar birinchi bo'lib bunday holatlar bilan to'qnash kelishadi yoki o'z vakolatlari doiralariga ko'ra, boshqa nazorat etuvchi idoralardan kelib tushgan hujjatlar bo'yicha qaror qabul qilishib, bu idoralar tomonidan qabul qilingan qarorlarning qonuniyligiga baho berishadi.

Prokurorlar umumiyliz nazoratni amalga oshirishda o'z vakolatlaridan foydalanish bo'yicha chegarani to'g'ri belgilashlari kerak. Chunki, bunda bir tomonidan, aniqlangan qonunbuzarlik hollari ta'sir choralarini ko'rmasdan qolmasligi kerak bo'lsa, ikkinchi tomonidan, korxonalarning tezkor xo'jalik faoliyatiga bevosita aralashmaslik, idoraviy boshqamv va tekshirav organlarining vazifalarini bajarmaslik lozim. Umumiyliz nazoratning chegarasini belgilashda

quyidagi qoida mezon bo'lishi mumkin, qayerda qonun «harakat qilsa», o'sha yerda umumiy nazorat «ishga tushadi» Ma'lumki, prokurorlik nazorati predmetiga Prezident Farmonlari va hukumat qarorlari kirmaydi. Ammo prokuror ular Konstitutsiya va qonunlarga zid deb hisoblasa, o'z fikrini ifodalagan ma'lumotni Konstitutsiyaviy sudga yuborishi mumkin.

Soliq qonunchiligining ijrosi ustidan prokuror nazorati deganda soliq qonunchiligiga rioya etilishini ta'minlash hamda soliq to'lashdan bo'yin tovlagan yoki soliqqa oid boshqa huquqbazarliklarni sodir etgan jismoniy yoki yuridik shaxslarni javobgarlikka tortishda prokurorlarning roli tushuniladi. Prokurorlar tergov o'tkazish, dalillar to'plash va soliqqa oid firibgarlik, soliq to'lashdan bo'yin tovlash yoki boshqa soliq qonunchilagini buzish holatlarini qo'zg'atish orqali soliq qonunchilagini tatbiq etishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ular soliq organlari va boshqa tegishli idoralar bilan yaqindan hamkorlik qilib, mumkin bo'lgan soliq huquqbazarliklarini aniqlash va unga aloqador shaxslarga nisbatan qonuniy choralar ko'rishadi. Soliq qonunchiligining bajarilishi ustidan prokuror nazorati, odatda, har qanday qoidabuzarliklarni yoki soliq qonunchiligiga rioya qilmaslikni aniqlash uchun tekshirishlar o'tkazish, moliyaviy hisobotlarni ko'rib chiqish va operatsiyalarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, ular axborot almashish va soliq qonunbuzarlarini aniqlash va jinoiy javobgarlikka tortish bo'yicha sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish uchun soliq organlari bilan hamkorlik qilishlari mumkin.

Prokurorlar soliq qonunchiligining ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish orqali soliq tizimining yaxlitligini ta'minlash,adolatli soliqqa tortishni ta'minlash, jismoniy yoki yuridik shaxslarning noqonuniy soliq faoliyati bilan shug'ullanishini oldini olishga hissa qo'shadi. Ularning sa'y-harakatlari davlatning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga va barcha soliq to'lovchilar uchun teng sharoit yaratishga yordam beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. В.И. Басков. Прокурорский надзор. М., «ВЕК», 1998.
2. А.Ж. Давлетов. Прокурорский надзор. Н., «Bilim», 1999.
3. Прокурорский надзор в Российской Федерации. (Под редакцией А.А. Чувилова). М., 2000.
4. Jinoyat protsessi (Umumiy qism). (Z.F. Inog'omjonova umumiy tahriri ostida.) Т., «Yangi asr avlodи», 2002.

5. Jinoyat protsessi (Maxsus qism). (Z.F. Inog'omjonova umumiy tahriri ostida.). Т., TDYI, 2003. 6. Уголовный процесс. Учебник. (Под редакцией Е.Н. Никифоровой). Т., 2002